



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziyo ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «27» август

VI-35-76-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lамини yanada kengaytirish to'g'risida

Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lамини yanada kengaytirish to'g'risida viloyat Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rribosari Z.Xidirovaning hisoboti xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishida eshitilganligini va bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi**:

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining yig'ilishi 2021-yil 17-avgust kuni ZOOM dasturi orqali o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining o'rribosari - Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i F.Tairov, shahar va tumanlar hokimlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalar uchun qulay sharoitlarga ega arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 285-sonli qaroriga asosan Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, uy-joyga muhtoj xotin-qizlarning ro'yxatini xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlaridagi "Xalqparvar" komissiyalar orqali ko'rib chiqishni tashkillashtirsin.

3. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rribosari Z.Xidirova shahar va tumanlar bo'limlari boshliqlarining birinchi o'rribosarlari bilan birgalikda ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarga shaxsan mas'ul etib belgilansin va xalq deputatlari mahalliy Kengashlaridagi "Xalqparvar" komissiyasi bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yisin.

4. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rribosari Z.Xidirova, shahar va tumanlar hokimliklari birgalikda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalarning ro'yxatini shakllantirsin.

5. Hududiy komissiyalar Dasturda ishtirok etish uchun yozma tavsiya berilgan talabgorlar ro‘yxatini har bir tuman (shahar)da har yili amalga oshirilayotgan Dasturlar doirasida ushbu og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risida nizomning 4-bandida belgilangan arzon uy-joylar bilan ta’minalash tartibiga muvofiq shakllantirsin va Komissiyaning bayonnomasi bilan tasdiqlasın.

Ro‘yxatda talabgorlarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash manzili, pasportiga oid ma’lumotlar, oila a’zolari soni va beriladigan arzon uy-joylarning turi aniq ko‘rsatilishini ta’minalasın.

6. Komissiyaning bayonnomasi va tasdiqlangan ro‘yxat tegishliligi bo‘yicha viloyat Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasiga uch ish kuni ichida taqdim etilishi ta’minalansin.

7. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi (Z.Xidirova) arzon uy-joylarni qurish uchun talab etiladigan dastlabki badalni Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hisobiga, shuningdek, talabgor kam ta’minlangan, doimiy daromadga ega bo‘lmagan va kreditni qoplashga layoqati yetarli bo‘lmagan taqdirda u ishlayotgan tashkilot, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, “Mahalla” xayriya jamoat fondining mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa jamg‘armalar hisobiga talabgorning jamg‘arma omonat hisob raqamiga o‘tkazilishini nazorat qilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-martdagи PF-6186-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagи “Ipoteka krediti mexanizmlari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-6274-sonli Farmonlariga muvofiq Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi zimmasiga respublika hududlarida uy-joy qurilishi bozorini rivojlantirish bo‘yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda daromadi yuqori bo‘lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan fuqarolarga ipoteka krediti bo‘yicha Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratilishini muvofiqlashtirish vazifalari yuklanganligi ma’lumot uchun;

2021-yil 1-oktabrga qadar qurilishi yakunlanib, foydalanishga tayyor holda topshirilgan kvartiralarni sotib olish uchun ajratiladigan ipoteka kreditlari bo‘yicha subsidiyalar sotib olinayotgan kvartiraning maydoni va narxi mazkur Farmonning 3-ilovasida keltirilgan kvartira maydonining eng ko‘p me’yori va uy-joyning hisoblangan qiymatidan oshgan taqdirda ham to‘lanishi belgilanganli ma’lumot va xizmatda foydalanish uchun qabul qilinsin.

9. Xalq deputalari tuman (shahar) Kengashlari:

ijtimoiy hamkorlikni yanada kuchaytirish, kompensatsiya, subsidiyalar va davlat tomonidan taqdim etiladigan boshqa imtiyozlarni adolatli taqsimlash hamda ulardan samarali foydalanish maqsadida senatorlar, deputatlar va jamoat faollaridan iborat tarkibda “Xalqparvar” komissiyalarni tashkil etsin;

har oyda “Xalqparvar” komissiyalarni jalb qilgan holda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalarни aniqlash, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, quruvchi xususiy pudrat tashkilotlarini uy-joy qurilishi sohasiga keng jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborotlarini o‘z sessiyalarida muhokama qilib borsin;

Uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan ipoteka kreditlari, subsidiyalar ajratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida mahallalarda manzilli targ‘ibot ishlarini olib borsin;

har chorak yakunida viloyat, tuman va shahar hokimliklari tomonidan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga doir hududiy dasturlar ijrosini va ulardagi maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishini nazorat qilib borsin.

10. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakunida tegishli mansabdar shaxslar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha komissiyasi (Sh.Xolliyeva) zimmasiga yuklansin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Кенгаш раиси



Bobolov T.A.